

ABDULLA QAHHORNING “DAXSHAT” HIKOYASIDA AYOLLAR OBRAZI

Ibodullayeva Mahliyo Bahodirovna

Termez iqtisodiyot va servis universiteti talabasi.

Sobirjon Bektashivich Bazarov

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti dekani,
fffd, dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14869144>

Annotatsiya. Ushbu maqolada abbdulla Qahhorning “Daxshat” hikoyasidagi ayollar obrazi, ularning o’sha davrda jamiyatdagi o’rni, qiyinchiliklari va oila bilan munosabatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: personaj, gender munosabatlari, voqea, obraz.

THE PORTRAIT OF WOMEN IN ABDULLA QAHHOR'S STORY "DAXSHAT"

Abstract. This article discusses the portrayal of women in Abdulla Qahhor's story "Daxshat", their role in society at that time, their difficulties, and their relationships with the family.

Keywords: character, gender relations, story, image.

ПОРТРЕТ ЖЕНЩИН В РАССКАЗЕ АБДУЛЛЫ КАХХОРА «ДАКСШАТ»

Аннотация. В статье рассматривается образ женщины в повести Абдуллы Каххора «Дахшат», ее роль в обществе того времени, ее трудности и ее отношения с семьей.

Ключевые слова: персонаж, гендерные отношения, событие, образ.

Kirish: “Hikoyalar ustasi” deb atalgan va bu janr asoschisi bo’lgan Abdulla qahhor turli mazzalarda asarlar yaratgan. Uning qalamiga mansub hikoyalarning kopchiligida ayollar va ularning qayg’uli qistamati, zamon va davr bilan konfliktlari aks etgan.

Ayniqsa adibning “Daxshat” hikoyasi gender munosabatlari qurboni bo’lgan hali o’n gulidan bir guli ochilmagan, ko’plab tazyiqlarga uchragan yosh va go’zal ayollar haqida. Abdulla Qahhorning "Daxshat" nomli hikoyasidagi ayollar obrazi, umuman olganda, qorong'u va noaniq dunyo orqali insonning ichki azoblari, psixologik og'riqlari va ruhiy kuchli kurashlarini tasvirlaydi.

Daxshat" hikoyasida Abdulla Qahhor o'zbek ayollarining o'sha davrda boshiga tushgan xo'rlik, musibat va kulfatlarni tasvirlaydi. Ayollar, ayniqsa Nodirmohbegim va Unsin, o'z hayotlaridagi qorong'u voqealar va ichki kurashlarni boshdan kechirishadi. Hikoya, shuningdek,

erksiz va ozodlikdan mahrum insonlarning ozodlikka erishish uchun qilgan mashaqqatli kurashlarini ko'rsatadi.

Qahhorning bu asari, nafaqat ayollarning ruhiy iztiroblarini, balki ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashayotgan kishilarning umid va jahon haqidagi qarashlarini ham aks ettiradi.

Abdulla Qahhorning "Daxshat" hikoyasidagi yozuvchilik uslubi va obrazlarning chuqurligi juda yaxshi ifodalangan. Unsinning qabristonda boshidan kechirgan voqealari, uning ruhiy holatini va dahshatli tajribalari, ayniqsa, uning ichki iztiroblari va qo'rquvlarini tasvirlashda yozuvchining nozik va detallarga e'tibor berishi aniq ko'rinadi.

Hikoyada Unsinning qabristonga yo'l olganida atrof-muhitni tasvirlash masalan, "Osmonning chekasi sariq-kir uvadaga o'xshaydi", "Shu'la qo'ynida past-baland uylar, shamolga egilayotgan daraxtlar qop-qora ko'rinadi" juda diqqat bilan ishlangan. Bu tasvirlar, shuningdek, hikoyaning atmosferasini kuchaytiradi, o'quvchini voqealarga chuqurroq jalb qiladi. Unsinning qabristondagi qo'rquvli tajribalari ham yozuvchining psixologik ta'sirlarni mukammal ko'rsata olishining namunasidir. Unsin o'ziga dalda berib "O'likning joni yo'q" deb aytganida, uning ichki kurashi va qo'rquvi bilan bog'liq boshqarilmas his-tuyg'ulari yaxshi aks ettirilgan. Hikoyaning oxirida Unsinning o'limi ham, aslida, o'zining ruhiy va jismoniy azoblaridan qochish va boshqalarning zulmidan xalos bo'lishi sifatida tasvirlanadi. O'lim nafaqat yakun, balki uning boshqalarga qarshi kurashdagi muvaffaqiyatsizlik va hayotining dahshatli tomonlaridan qochishidir.

Xulosa qilib aytganda, "Daxshat" hikoyasida Abdulla Qahhor o'zining yozuvchilik mahoratini va personajlarning ichki dunyosini nozik tasvirlashda yuqori darajada muvaffaqiyatga erishgan. Bu hikoya ayollarning ruhiy iztiroblari, zulm, va o'limning qorong'u tomonlarini chuqur anglashga yordam beradi.

REFERENCES

1. Qo'chqorov R. Men bilan munozara qilsangiz. -T. Ma'naviyat nashr. 1999.
2. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. —T.: „O'qituvchi“, 1999.